

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

QADIMGI MISRDA ILK SHAHARLAR VA DAVLATLAR PAYDO BO'LISHI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Ahmatov Rustam**

SHDPI 1-KURS TALABASI **To'qboyev Zuhrob**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Meyliyev Alpjamol**

ANNOTATSIYA: Qadimgi Misrda ilk shaharlar va davlatlar paydo bo'lishi Qadimgi Misr tarixida shaharlar va davlatlarning shakllanishi Nil daryosi bo'ylarida rivojlangan qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq. Miloddan avvalgi IV mingyillikda misrda mayda qabilalar va jamoalar birlashib, nomlar deb ataluvchi kichik davlatlarni tashkil etgan. Keyinchalik, miloddan avvalgi 3100-yilda birinchi fir'avn Narmer (Menes) shimoliy va janubiy misrni birlashtirib, yagona markazlashgan davlatga asos solgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Misr, Nil daryosi, Qishloq xo'jaligi, Nomlar (kichik davlatlar), Fir'avn Narmer (Menes), Shimoliy va Janubiy Misr birlashuvi, Markazlashgan davlat.

KIRISH: Qadimgi Misr sivilizatsiyasi dunyo tarixidagi eng qadimiy va boy madaniyatlardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi nil daryosining geografik va iqlimiy imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq edi. Miloddan avvalgi IV mingyillikda nil vodiysida yashovchi qabilalar asta-sekin qishloq xo'jaligini rivojlantirib, suvni boshqarish va yirik ekin maydonlarini o'zlashtirishni o'rgandilar. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuvni kuchaytirib, kichik davlatlar – nomlarning vujudga kelishiga olib keldi. [1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzuni yoritishda misrning markaziy faoliyatiga va shu bilan birga ijtimoiy mavqeyiga ham alohida e'tibor qaratilib, A.Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi". T, 2016. "Tashakkur" nashriyoti. R.Rajabov. "Qadimgi dunyo tarixi". T, 2009. F.Sultonov, Sh. Yodgorov, F.Bozorboyev, U.Shoimov, B.Boymenov "Tarix" I-qism: Qadimgi davr. T, 2006 bir qator adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik va chorvachilik kabi ishlab chiqaruvchi ho'jaliklar paydo bo'lgan joylarda shakllandi. Ming yillar davomida faqat termachilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko'pgina qabila va ellatlar davlatchilik bosqichiga ko'tarila olmadilar. Dehqon o'z mehnati bilan, ovchi qo'lga kiritadigan o'ljaga qaraganda ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi. Dehqonchilik odamlarni o'troq hayot kechirishga, hunarmandchilikning shakllanishiga, mahsulot ayirboshlash va savdo-sotiqqa asos soldi. Eng qadimgi davlat miloddan avvalgi 4-ming yillikda Ikki daryo oralig'i va Misrda paydo bo'ldi. Bundan 10 ming yillar ilgari bu erda dehqonchilik va chorvachilikka o'tish boshlandi. Asta sekinlik bilan dehqonchilik bu yerdan qo'shni hududlar (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy) ga tarqaladi. Mil avv. 3-2 ming yillikdayoq Qadimgi Sharq aholisi o'rtasida zich tarixiy madaniy aloqalar mavjud edi. Misrda ilk podsholik davri mil.avv. 3100-2800-yillarni o'z ichiga oladi. Undagi o'zaro urushlar natijasida dastlab Yuqori va Quyi Misr davlatlari shakllanadi. Mil.avv. 3000-yili Yuqori Misr podshosi Mina (yunoncha Menes) shimoldagi yerlarini bosib olib yagona davlat tuzadi. U Per-o ya'ni "baland uy" "saroy egasi" unvonini olib, bu so'z keyinchalik fir'avn - hukmdor ma'nosini anglatuvchi atamaga aylanadi. Mina Quyi Misrda yangi poytaxt Memfis ("Oq devorlar") shahrini qurdirgan. Ilk podsholikni boshqargan I-II sulola fir'avnlari janubda Nubiyaga, shimoliy-sharqda Sinay yarimoroliga qadar bostirib kirib u yerlardan ko'plab asirlar va o'ljalalar bilan qaytganlar. Keyingi III-X sulolalar podsholigi hukmronligi davri Qadimgi Misr podsholigi deb ataladi. Bu paytda

Misrning istilochilik urushlari kuchayadi, xususan IV sulola fir'avni Snofru boy mis konlari bo'lgan Sinay yarimrolini o'z davlatiga qo'shib oladi. Uning qo'shinlari sharqda Falastin, janubda Nubiya, g'arbda Liviya qabilalariga qarshi urushlar olib boradi. O'rta podsholikdagi XI-XIII sulola fir'avnlari Misrni mil.avv. 2250-1750-yillari boshqargan. Bu davrda mamlakatda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo yuksalgan. Poytaxt uchun maxsus muhtasham Ittaun shahri barpo etilgan. Ammo og'ir soliqlar mil.avv. 1750-yili Misrda yirik xalq qo'zg'oloniga sabab bo'lib, u haqda o'sha zamonda yaratilgan "Ipuser so'zlari" yodgorligida yozib qoldirilgan. Mamlakatning zaiflasha borishi uni sharqdan kelgan ko'chmanchi giksoslar tomonidan istilo qilinishiga olib keladi. Natijada mil.avv. 1710-1580-yillari Misrni XV-XVI giksoslar sulolalari boshqarib, unda Xianning fir'avnligi davrida nisbatan yuksalish kuzatiladi. [2] Qadimgi Misrning geografik o'rni, tabiati va aholisi. Misr Sharqdagi eng qadimgi despotik davlatlardan biri bo'lib, u Afrika qit'asining shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan mamlakatdir. Nil dunyodagi eng katta daryo, uzunligi 6500 kilometrdan ortiqdir. U Markaziy Afrikaning katta ko'llaridan oqib chiqadigan Oq va Ko'k Nil daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryo to'rt sharshara-ostonalardan o'tgach 700 kilometr masofada vohadan oqib o'tadi va bir necha tarmoqlarga bo'linib O'rtayer dengiziga quyiladi. Toshqin paytida Nil ko'pdan-ko'p o'simliklar va turli tog' jinslarini oqizib keladi. Oqib kelgan tog' jinslaridan daryo qip-qizil tusga kiradi. Toshqin tugagach, o'simlik chirindilari, tuproq va tog' jinslaridan hosil bo'lgan zarralar suv bosgan joylarda cho'kib, qoramtir quyqumlar qoldiradi. Quyqumlar qurib serhosil qora tuproqli yer hosil qiladi. Misrning qulay geografik o'rni va boy tabiiy sharoiti qadim zamondan boshlab kishilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Ibtidoiy odamlar Nil vohasiga juda qadim zamonlardayoq kirib kelishgan. Mashhur arxeolog D.D.Klarkning ma'lumotlariga ko'ra, Misrda ibtidoiy odamlar 80-90 ming yildan beri yashab kelar ekanlar. Ammo daryo toshqini odamlarning bu yerda doimo yashashlariga xalaqit bergan. Arxeolog olimlar Fayum vohasidan bundan 25-30 ming yillar ilgari yashagan odamlarning manzilgohlarini topganlar. Bu yerdan topilgan arxeologik ashyolar shu davr odamlari yog'och, qamish, lotos va papiruslardan chaylalar qurib yashaganligi, tosh, yog'och va suyaklardan qurollar yasab ovcilik va termachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. M.avv. VI-V mingyilliklarda Misrda aholi ancha ko'payib, dastlabki qishloqlar paydo bo'lgan. Antropologik ma'lumotlarga ko'ra, Qadimgi misrliklar qorachadan kelgan, xushqomat bo'lib, kamsoqol bo'lishgan. Misrga janubdan nubiyaliklar, Markaziy Afrikadan esa past bo'yli odamlar - pigmeylar yoki liliputlar, g'arbdan liviyaliklar, shimoli-sharqdan esa giksos kabi qabilalar kelib o'nashganlar. Keyinchalik esa Nil vohasiga habashlar, ossurlar, forslar. yunonlar, makedonlar va rimliklar ham kirib kelganlar. Misr geografik jihatdan ikki qismga: Yuqori Misrga shahar va uzun vodiya hamda Quyi Misrga Nilning uchburchak bo'ylab tarmoqlanib, O'rta dengizga borib bo'lib chiqadigan keng deltasiga bo'linadi. Nil vodiysi yordami 700 km ga yaqin va tepadan 20 km dan 50 km o'rtasida bo'lgan tor joydan iborat bo'lib, birinchi besag'adan to deltasigacha cho'zilib ketadi. [3] Misr zamini mis, oltin, qo'rg'oshin va yarim qimmatbaho ma'danlariga boy maskan hisoblangan. Misni asosan Sinay yarimorolidan qazib olganlar va tosh bilan birga ziroatchilik va chorvachilikda keng qo'llashgan. Ohaktosh, granit va kvars Misrda ko'p uchragan. Ma'danga boy rudalar Barka tog'idan qazib olingan. Misr iqlimi nisbatan mo'tadil bo'lganligi va Yaqin Sharq iqlimiga yaqin ekanligini olimlar (L. S. Berg va K. V. Butser) ta'kidlab o'tganlar. Nil qirg'oqlari qamish, papirus va boshqa o't-o'lanlar bilan qoplangan edi.. Daryoda ko'plab baliq turlari mavjud bo'lib, baliqchilikka qulay hisoblangan. Barakali daryo bo'ylarida o'rdak, g'oz, ibis va boshqa qushlar ko'p uchragan. Mumdor tuproqda bug'doy, arpa, tarvuz, qovun, va turli xil sabzavotlar(piyoz, bodring, sarimsoq, sabzi va boshqalar) yaxshi o'sgan. Bularning barchasi Misrni inson yashashi uchun qulay maskan bo'lganligidan dalolat beradi. Umuman olganda moddiy va yozma manbalarning umumiy tahlili hamda tarix fani sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlar qadimgi Misr davlatchiligini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: Misrning qadimgi tarixi besh

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

davrga, ya'ni, Ilk podsholik (mil. avv. 3100-2648-yy), Qadimgi podsholik (mil. avv. 2648-2250-yy), O'rta podsholik (mil. avv. 2040-1783-yy), Yangi podsholik (mil. avv. 1550-1069-yy), So'nggi podsholik (mil. avv. 664-332-yy) ga bo'lib o'rganiladi. Bu orada Misr 3 ta o'tish davrini ham boshdan kechiradi. Ammo uning xronologik chegaralari borasida hozirga qadar misrshunoslar orasida munozarali fikrlar mavjud. Qadimgi Misr tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish mil. avv. V ming yillikda, Nil vohasini o'zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. "Sulolagacha bo'lgan davr" deb, yuritiluvchi mazkur davr Misr tarixida ikkiga bo'linib, ya'ni "Amrat" (Negada I) va "Gerzey" (Negada II) madaniyatlari sifatida o'rganiladi. Ushbu madaniyatlar qadimgi Misrda irrigatsiyaning o'sishi va chorvachilikni ovchilikdan ustun kela boshlashi haqida ma'lumot beradi. Hunarmandchilik o'z navbatida dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqdi va natijada qadimgi Misr jamiyatida mulkiy tabaqalanish jarayoni yanada o'sib boradi. Aynan mana shu davrda Nil daryosi qirg'oqlarida ilk davlatchalar ("sepat" yoki "nom") paydo bo'ladi. Shu tariqa ilk davlatchilik paydo bo'lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratildi. Nomliklar soni Nil bo'yi aholisining o'sishi bilan bevosita bog'liq edi. Ularning hududiy chegaralari doimiy tusga ega bo'lmagan. Har bir nom dastlab mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan. Nil bo'yi davlatchalari "nomarxlar tomonidan boshqarilgan. Nomlik o'z gerbi, diniy va siyosiy markaziga hamda harbiy qismlariga ham ega edi. Natijada ichki urushlar (misrshunoslikda "nol sulolasi") davrida har bir nomarx oliy hukmronlikka intildi. Umumiy 42 ta nomlik ikkiga ya'ni, Yuqori Misr va Quyi Misr davlatiga birlashadi. Madaniy jihatdan ushbu davlatlar bir-biridan farq qilgan deb bo'lmaydi. Ammo diniy va siyosiy mafkurasida sezilarli tafovut bo'lgan. Qadimda ierogliflarda misrliklar mamlakatini "Ta-kemet" yoki "Ta-ui" deb ataganlar. Shu tariqa harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillar mazkur hududda davlatchilik tizimini shakllanishiga imkon yaratdi. [4] Dunyo tarixida ilk davlat va jamiyat mil. avv. IV ming yillik so'ngida qadimgi Afrikaning shimoliy sharqida, Nil daryosi vodiysida Misrda paydo bo'ldi. Qadimgi Misr davlati tarixi mil. avv. IV ming yillikdan mil. avv. I asrgacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi. Misr tarixi qadimgi, o'rta, yangi va so'nggi podsholiklarga bo'linadi. Boshda mavjud bo'lgan 42 ta kichik davlatchalarning hokimlari o'zlarini kam sonli harbiy bo'linmalariga ega bo'lgan. Urush xavfi bo'lgan vaqtda aholidan ko'ngillilar harbiy ishga jalb etilganlar. Qadimgi Misrda dastlab harbiy armiyaning muntazam ko'rinishi ilk sulola davridan paydo bo'lgan. Qadimgi Misr tarixi bir necha podsholiklarga bo'linadi. Qadimgi podsholik davrida (2800-2275-yillar) fir'avnlardan aholidan ko'ngillilardan to'plangan armiya tuzgan. Shu vaqtdan boshlab Misr fir'avnlari janubda hozirgi Sudan, g'arbda hozirgi Liviya va shimoliy-sharqiy chegaralarda Suriya, Falastinga o'lja, xomashyo va qullar uchun ko'plab istilochilik urushlari olib borganlar. Qadimgi podsholik davridagi jang qilayotgan Misr harbiy qismlari tasvirlari bizgacha yetib kelgan. Jangchilar to'g'riburchakli qalqon bilan himoyalani, nayza, oybolta va gurzi bilan qurollanganlar. O'rtada harbiy boshliq va uning yonida do'mbirachi askarlarni ruhlantirib, jangga chorlamoqdalar. Mamlakat chegaralarini qo'shni ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish hamda asosiy savdo yo'llarini o'z ta'siri ostida ushlab turish maqsadida harbiy kuch kerak edi. Misrda urush xafvi tug'ilganda aholidan ko'ngillilar, Misr qishloq jamoalaridan to'plangan ko'ngillilar asosan yosh yigitlardan iborat edi. Harbiy boshqaruv fir'avn (hukmdor) qo'lida to'plangan. Davlat miqyosida harbiy soha "qurol uyi" nomli oliy harbiy muassasa tomonidan amalga oshirilgan. Bu tashkilot Misr armiyasida armiya qurol-yarogi, qal'alar qurilishi va armiya ta'minoti bilan shug'ullangan. Bizgacha yetib kelgan ba'zi tasvirlar harbiy safning mavjud bo'lgani, turli harbiy unvonlar to'g'risida ma'lumot beradi. Ilk mudofaa harbiy inshootlarni qurish boshlanib, dushman qal'alarini qamal qilishning ilk uquvi paydo bo'ldi. Bizgacha mil. avv. 2700-2100-yillar atrofidagi qadimgi podsholik davri askarlarining yog'och haykalchalari yetib kelgan. Bu askarlarning yog'och haykalchalari orqali askarning qurol-aslahasi to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Qadimgi podsholik armiyasi tosh uchli cho'qmor, mis yoki tosh bolta, tosh parrak, uchli nayza, tosh yoki mis xanjar bilan qurollangan edi. Ilk sulola davrida esa (mil. avv.

IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlari) bumerang, uchi o'tkirlangan oddiy tayoq keng qo'llanilgan. [5]

XULOSA: Qadimgi Misrda ilk shaharlar va davlatlarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muhim jarayonlardan biridir. Nil daryosi bo'ylarida rivojlangan qishloq xo'jaligi va suvni boshqarish tizimlari ijtimoiy taraqqiyotga, shaharlar va davlat tuzilmalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Fir'avn Narmer boshchiligida Shimoliy va Janubiy Misrning birlashuvi esa markazlashgan davlatni vujudga keltirib, Misrning iqtisodiy, madaniy va siyosiy qudratini oshirdi. Bu jarayon qadimgi dunyo madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, keyingi sivilizatsiyalar uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Qadimgi Misrning tajribasi insoniyatning davlat tuzilmalari va boshqaruv tizimlarini rivojlantirishdagi ulkan yutug'ini namoyan etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi". Toshkent-2009.
2. A.Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent-2016.
3. F.Sultonov, Sh. Yodgorov, F.Bozorboyev, U.Shoimov, B.Boymenov "Tarix" I-qism: Qadimgi davr. Toshkent-2006.
4. A.G.Xolliyev "Jahon tarixi". Toshkent "Navro'z"-2018.
5. R.Rajabov "Qadimgi Sharq harbiy san'ati". Toshkent-2018.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI*, 1(01).